


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

JASUR ZIYAMUHAMEDOV
ZEBO SHAMSHIYEVA

LIAO ZHAI (PU SUNG LING)
NOVELLALARI

(Xitoy adabiyoti bo'yicha xrestomatiya)



Toshkent – 2012

Xitoy adabiyotidan tayyorlangan mazkur xrestomatiya IDT-1-144 “O‘zbek adabiyoti namunalarini sharq tillariga tarjima qilishning nazariy va amaliy masalalari” nomli loyiha doirasida amalga oshirilgan. Xrestomatiyada Pu Sunglingning o‘n ikkita novellasining tarjimalari berilgan. Mazkur kitobdan bakalvrning filologiya va tillarni o‘qitish hamda tarjima nazariyasi va amaliyoti ta’lim yo‘nalishlari talabalari “Xitoy adabiyoti” fanida, magistratura bosqichida ta’lim olayotgan magistrlar “O‘rta asr xitoy novellistikasi” nomli tanlov fan doirasida, akademik litsey o‘quvchilari, xitoy tili va adabiyoti o‘qituvchilari va boshqa xitoy tilini mustaqil o‘rganuvchilar hamda xitoy adabiyoti muxlislari ham foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi va tarjimonlar: f.f.n., dotsent J.T.Ziyamuhamedov
Z.F.Shamshiyeva

Ma’sul muharrir: f.f.n., dotsent S.R.Sotiboldiyeva

Taqrizchilar: f.f.n., dotsent U.U. Muhibova

f.f.n., dotsent A. X.Tilavov

Xrestomatiya ToshDShI Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (№9, 2012 yil 26 aprel).

XITOIY ADABIYOTIDAGI NOVELLA JANRINING TAKOMILLASHUVIDA PU SUNGLINGNING O'RNI

“Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini targʻib qilish va ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni maʼnaviy tarbiyalashning asosi boʻlmogʻi kerak”, - deb yozadi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov¹. Davlatimiz rahbarining bu soʻzlari sharqshunoslar, ayniqsa, adabiyotshunoslarga jahon adabiyotining sara asarlari bilan oʻzbek kitobxonini tanishtirish, uning dunyoqarashini tafakkur durdonalari bilan boyitish maʼsuliyatini yuklaydi.

Oʻzbekiston va Xitoyning ijtimoiy, savdo-sotiq va madaniy-adabiy aloqalari tarixi ming yillarga tutash. Xalqlarimiz oʻrtasidagi bu aloqalarning ildizlari Buyuk Ipak Yoʻlining tarixi bilan bogʻlanadi.

Mamlakatimizning istiqloli tufayli oʻzbek va xitoy munosabatlari yangi bosqichga qadam qoʻydi. Ikki davlat boshliqlari – Islom Karimov va Szyan Szemin, soʻng Hu Szin Taoning mamlakatlarga oʻzaro tashriflari bu aloqalarning yanada rivojlanishini taʼminlab berdi. Ayniqsa, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi oʻzaro munosabatlar Oʻzbekiston va XXR oʻrtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning yanada kengayishiga sabab boʻlmoqda.

Xitoy adabiyoti oʻziga xosligi, janrlar xilma-xilligi va mazmunan boyligi, serqirraligi bilan oʻzbek kitobxonini qiziqtirib kelgan. Xitoy adabiyotining durdonalari ichida novella, xususan, sehrli novellalar adabiyotshunoslar eʼtiborini tortayotgani bejiz emas. Ildizlari xalq ogʻzaki ijodiga borib taqaladigan novella janri xitoy badiiy nasri tarixida alohida oʻrin tutadi. Oʻzining asl sifatlarini deyarli oʻzgarishsiz saqlab qolgan

¹ Karimov I.A. Maʼnaviy yuksalish yoʻlida. – T.: Oʻzbekiston

janr ham novelladir. Bu janr xalq og'zaki ijodidagi masal-novelladan hamda hikoya-novellalardan, tang(唐) novellasi va sung(宋) davri xalq qissa-novellalaridan psixologik novellaga qadar o'sib rivojlandi, takomillashdi.

Xitoy adabiyoti tarixida novella janrini yuksak takomilga olib chiqqan va keyingi rivojlanish yo'lini belgilab bergan yozuvchilardan biri Pu Sungling(蒲松龄)(1640-1715)dir. U Lyao Jay(聊斋) taxallusi bilan ijod qilgan.

Bundan uch asr muqaddam u "Lyao Jayning g'aroyibotlar haqidagi hikoyalar" asarini yaratdi. Pu Sungling 500 ga yaqin novella yozgan, degan ma'lumotlar ham mavjud². Biroq uning bir qism novellalari bizgacha yetib kelmagan. Adib umr bo'yi g'ayrioddiy hodisalar va sehri narsalar haqidagi hikoyalarni, shuningdek, xalq latifalarini yig'gan.

Hech bir tarixiy asar o'tmish manzarasini badiiy adabiyot singari ikir-chikirlargacha batafsil aks ettira olmaydi. Shu ma'noda Pu Sungling asarlarini xitoy xalqlari hayotining in'ikosi, madaniy merosining ajralmas qismi, xitoy jamiyatidagi turli tabaqalar hayoti va o'ziga xosliklari haqida fikr yuritishga imkon beruvchi ma'lumotlar manbaidir.

Ba'zan bu – xalq ertak va afsonalarning qayta ishlangani, ba'zida masal yoki latifa, ayrim hollarda esa qadimgi hikoya yoki novellaning mohiyatini anglatadigan iboradir³. Shu xususiyatlari uchun adabiyotshunoslikda Pu Sungling novellalarini tadqiq etish katta ahamiyat kasb etadi.

Novella janrining badiiy xususiyatlari ko'pdan beri tadqiqotchilar e'tiborini tortish bilan bir qatorda, jiddiy filologik

²中国文化。编著英译。-北京，2004年1月，189页

³Лисевич И.С. Литературная мысль Китая. – М.: Наука, 1979. – Б.195.

tadqiqotlar mavzusi ham bo'lmog'ida. Bu, avvalo, xitoy adabiyoti tarixida ushbu janrning keng tarqalganligi bilan bog'liq.

Pu Sungling novellalari fantastik va kutilmagan personajlar: qiyofasini o'zgartiruvchi tulkilar, sehrGAR rohiblar, samoviy va hayoliy sharpalardan iborat bo'lib, voqealarda parranda va darrandalar, gazanda va hasharotlar, asalari va chumoli singari jonivorlar hamda turli xildagi o'simliklar dunyosi vakillari ham ishtirok etadi. Afsonaviy, samoviy qahramonlar va narigi dunyodan kelganlar qatoriga savdogarlar, ma'murlar, dehqonlar, hukmdorlar, bosqinchilar, sohibjamol xonimlar singari zamin ahli ham osongina qo'shilib ketaveradilar.

Xitoyda novella turidagi kichik epik janrlar yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodining III-XIX asrlardagi doimiy o'zaro aloqalari asosida rivojlanib keldi.

VIII-XIV asrlar xitoy novellalari mavzu doirasi va g'oyasi jihatidan Uyg'onish davri yevropa xalqlari adabiyotidagi novellalaridan sezilarli farqlanadi. Shu bois, Pu Sungling novellalariga nisbatan "yuksak realistik" ta'rifini qo'llab bo'lmaydi. Ularni "fantastik" deb nomlash ham qiyin. Nazarimizda, ularga "sehrli" ta'rif ko'proq muvofiq keladi. Zero, Pu Sungling to'plamlari nomidan kelib chiqib, uning asarlari sehrli ertaklar va III-VI asrlar mifologik manbalari bilan hamnafas, deya hukm chiqarish mumkin.

Novellalardagi folklor motivlari etnografik materialning badiiy tizimga aylanish jarayonini ko'rsatadi. Bu jarayon sehrGAR xotin haqidagi motiv evolyutsiyasida va hatto, Pu Sungling ijodida ham, asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, XIV-XX asrlar novellalarining ishqiy sirlariga aylanishda, ayniqsa, yorqin namoyon bo'lgan. Pu Sungling novellalarining o'ziga xosligi shundaki, ular novellaning boshlang'ich genetik aloqadorlik alomatlarini hamisha saqlab kelgan. Pu Sungling qadimgi folklor motivlarini tadrijiy taraqqiy ettira oldi, o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi hamda novella an'anasining rivojlanish jarayonini boshlab